



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI)	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS	68
Bokhodirov Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI	84
Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....90

Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich

O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA “YASHIL EKOTIZIM” VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP) NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIYALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI



Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida tayanch doktoranti
E-mail: dustkobilovulugbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari hisoblangan tekstil va qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida yashil sanoatlashtirish hamda resurs va energiya samaradorligi (RECP) metodologiyasini joriy etishning dolzarb masalalari tadqiq qilingan. Kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarida uglerod neytralligiga erishish, oqova suvlarni samarali tozalash va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha besh bosqichli “Yo‘l xaritasi” modeli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari RECP choralarini tizimli qo‘llash orqali korxonalarda issiqxona gazlari (CO₂e) emissiyasini kamida 10–11 foizga qisqartirish, resurslardan oqilona foydalanish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur yondashuv sanoat korxonalarining ekologik barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil sanoatlashtirish, RECP, resurs samaradorligi, ekotizim, CO₂ emissiyasi, tekstil sanoati, qurilish materiallari, BDS provayderlari, ISO 14001.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы внедрения зелёной индустриализации и методологии ресурсо- и энергоэффективного производства (RECP) на предприятиях текстильной промышленности и производства строительных материалов — ведущих отраслей экономики Узбекистана. На основе данных проекта, реализованного при поддержке международного сотрудничества, проведён анализ пятиэтапной модели «Дорожной карты», направленной на достижение углеродной нейтральности, повышение эффективности очистки сточных вод и совершенствование системы управления отходами в субъектах малого и среднего бизнеса (МСБ). Результаты исследования подтверждают, что системное применение мер RECP способствует сокращению выбросов парниковых газов (CO₂e) не менее чем на 10–11 %, рациональному использованию ресурсов и оптимизации операционных затрат. Кроме того, данный подход создаёт дополнительные возможности для повышения экологической устойчивости и конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: зелёная индустриализация, RECP, ресурсоэффективность, экосистема, выбросы CO₂, текстильная промышленность, строительные материалы, поставщики BDS, ISO 14001.

Abstract. This article explores the implementation of green industrialization and the Resource and Energy Efficiency in Cleaner Production (RECP) methodology in textile and construction materials manufacturing enterprises, which represent key sectors of Uzbekistan’s economy. Based on project data obtained through international cooperation initiatives, the study analyses a five-stage Roadmap model aimed at achieving carbon neutrality, improving wastewater treatment efficiency, and enhancing waste management practices in small



and medium-sized enterprises (SMEs). The findings demonstrate that the systematic application of RECP measures can contribute to reducing greenhouse gas (CO₂e) emissions by at least 10–11%, promoting more efficient resource utilization, and optimizing operational costs. Furthermore, the study highlights the potential of RECP to strengthen environmental sustainability and improve the long-term competitiveness of industrial enterprises.

Keywords: green industrialization, RECP, resource efficiency, ecosystem, CO₂ emissions, textile industry, construction materials, BDS providers, ISO 14001.

KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari sharoitida iqtisodiy o'sishni resurslar iste'molidan ajratish (decoupling) barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham sanoat ishlab chiqarishini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar hajmini qisqartirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, respublika yalpi ichki mahsulotida salmoqli ulushga ega bo'lgan tekstil va qurilish materiallari sanoatida innovatsion ekologik texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sanoat korxonalarining yashil transformatsiyasini jadallashtirishda nafaqat davlat monitoringi, balki Biznesni rivojlantirish xizmatlari (BDS) provayderlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan barqaror ekotizim muhim o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston iqtisodiy muhitida korxonalarining resurs balansi va energetik audit ko'rsatkichlarini baholash asosida resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilash hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlashga qaratilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.B. Shoyqulov [4], M. Yo'ldoshev [5], A. Ergashev va B. Toshmatov [6]ning ilmiy ishlarida yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar va ularning institutsional asoslari masalalari keng yoritilgan. E. Umarov [7] O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari va barqaror texnologik o'zgarishlarni amalga oshirishning samarali yo'nalishlarini asoslab bergan. A. Saydullayev [8] yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlarini tahlil qilgan. B. Isakulova va hammualliflar [9], J. Xodjiyev va hammualliflar [10] tomonidan O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Xalqaro miqyosda RECP metodologiyasi UNIDO va UNEP tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda uning mahalliy sanoat korxonalarida qo'llanilishi va amaliy samaradorligi kompleks yondashuv asosida baholangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida Toza ishlab chiqarish (Cleaner Production) konsepsiyasi hamda Resurs va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan xalqaro RECP (Resource Efficient and Cleaner Production) metodologiyasi qo'llanildi. Sanoat korxonalarida yashil sanoatlashtirishni baholash va joriy etish jarayoni besh bosqichli kompleks tizim asosida amalga oshirildi.

1-bosqich. Rejalashtirish va tashkil etish. Ushbu bosqichda korxonalar rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi ta'minlanib, "Yashil guruh" shakllantiriladi hamda asosiy maqsadli indikatorlar belgilanadi.

2-bosqich. Dastlabki baholash (Pre-assessment). Korxonaning texnologik jarayonlari va ishlab chiqarish liniyalari tahlil qilinib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati yuqori bo'lgan nuqtalar (hotspots) aniqlanadi.

3-bosqich. Baholash (Assessment). Moddiy va energetik balanslar (Material and Energy Balances) tuzilib, xomashyo, suv, gaz va elektr energiyasi oqimlari miqdoriy hamda sifat jihatidan tahlil qilinadi.

4-bosqich. Texnik-iqtisodiy asoslash (Evaluation & Feasibility Study). Taklif etilayotgan yashil texnologiyalar texnik, iqtisodiy va ekologik jihatdan baholanib, ularning samaradorligi hamda amalga oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.



5-bosqich. Joriy etish va davomiylikni ta'minlash. Tanlangan yechimlar ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilinib, muntazam monitoring yo'lga qo'yiladi hamda ISO 14001 va ISO 14064 standartlari talablari asosida baholash va verifikatsiya ishlari amalga oshiriladi.

Baholash jarayonida har bir holat maxsus tahliliy matritsa asosida ko'rib chiqiladi: resurs va energiya samaradorligi holati → iqtisodiy va ekologik ta'sir tavsifi → samaradorlikni oshirishga qaratilgan qisqa va uzoq muddatli yechimlar. Ushbu yondashuv korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish korxonalarining iqtisodiy barqarorligi, energiya samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar natijasida o'rta quvvatli korxonalarda quyidagi samarali yashil chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi aniqlandi:

Quyosh fotoelektr stansiyalarini (QFS) o'rnatish. Ishlab chiqarish binolarining tom qismidan samarali foydalangan holda quvvati 115 kVtgacha bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish orqali yillik elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning qariyb 46 foizini qoplash imkoniyati mavjud. Mazkur yechim yillik CO₂ emissiyasini 44 foizga (taxminan 70,7 tonnaga) qisqartirishga xizmat qiladi. Loyiha investitsiyalarining o'zini qoplash muddati o'rtacha 3,9 yilni tashkil etadi.

Reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish tizimini joriy etish. Kondensator batareyalari yordamida reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish elektr energiyasi xarajatlarini 25 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Natijada yiliga 53,9 tonna CO₂ emissiyasining oldi olinadi. Ushbu tizimning o'zini qoplash muddati o'rtacha 4,3 yilga teng.

Bug'lanish tipidagi sovutgichlarni (Evaporative Coolers) joriy etish. An'anaviy konditsionerlarga nisbatan 87 foizgacha kam energiya sarflaydigan bio-sovutgichlardan foydalanish elektr energiyasi iste'molini sezilarli darajada qisqartiradi hamda yiliga 8,5 tonnadan ortiq CO₂e emissiyasini kamaytirishga imkon yaratadi. Mazkur chora-tadbir eng qisqa, ya'ni taxminan 1,6 yillik o'zini qoplash muddatiga ega.

Xalqaro hamkorlik loyihasi doirasida respublikadagi 15 ta yetakchi tekstil va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda RECP auditi o'tkazildi. Tadqiqot natijalari quyidagi ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon etdi:

- issiqxona gazlari (CO₂e) emissiyasini o'rtacha 10–11 foizga qisqartirish imkoniyatlari aniqlandi;
- 7 ta KOB subyektida yiliga kamida 486 tonna CO₂e emissiyasining oldini olish imkoniyati tasdiqlandi;
- tekstil sanoatida oqova suvlarni tozalashning zamonaviy membranali texnologiyalarini joriy etish orqali suv resurslarining ekologik holatini yaxshilash va zararli moddalar konsentratsiyasini sezilarli darajada kamaytirishga erishildi.

Olingan natijalar RECP metodologiyasining sanoat korxonalarida resurs va energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni mustahkamlash hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga samarali tatbiq etishda yuqori salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil sanoatlashtirishga o'tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki korxonalarining bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshligini oshirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi. Resurslar va energiyadan oqilona foydalanish operatsion xarajatlarni qisqartirishga, mahsulot tannaxini pasaytirishga hamda korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar O'zbekiston sharoitida yashil transformatsiyani jadallashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, yashil texnologiyalar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, BDS provayderlari faoliyatini kengaytirish hamda "yashil moliyalashtirish" (Green Financing) mexanizmlarini rivojlantirish ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, CE Marking, ISO 14001 va ISO 14064 xalqaro standartlarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish korxonalarining eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida RECP metodologiyasining 5 bosqichli modelini amaliyotga tatbiq etish orqali korxonalarda CO₂ emissiyasini kamida 10–11 foizga qisqartirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Bu esa ekologik samaradorlik bilan bir qatorda iqtisodiy natijadorlikni ham oshirish imkonini beradi.



Kelgusida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, zamonaviy energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli trening va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, sanoat korxonalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ). (2024). Private Sector Development and Economic Policy Advice in Uzbekistan: First Achievements in Creating a Green Business Development Ecosystem. – Toshkent.
- [2] Integration Maslahat guruhi. (2024). Creating a Green Business Development Ecosystem in Uzbekistan. – Toshkent.
- [3] Xalqaro hamkorlik loyihasi. (2024). Roadmap for Green Industrialisation Assessments in SMEs. – Toshkent.
- [4] Shoyqulov B.B. (2023). Yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalar: nazariya va amaliyot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – № 7. – B. 12–19.
- [5] Yo'ldoshev M. (2022). O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish: imkoniyatlar va rivojlanish omillari // O'zbekiston iqtisodiyot jurnali. – T. 12, № 3. – B. 45–58.
- [6] Ergashev A., Toshmatov B. (2023). Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyotning institutsional asoslari // Markaziy Osiyo iqtisodiyot jurnali. – T. 8, № 2. – B. 22–39.
- [7] Umarov E. (2023). O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – T. 7, № 1. – B. 67–82.
- [8] Saydullayev A. (2023). Yashil iqtisodiyot: O'zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o'sish yo'li // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – Vol. 15. – P. 129–137.
- [9] Isakulova B., Usmanova L., Saidvaliyeva D. (2024). O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish // E3S Web of Conferences.
- [10] Xodjiyev J., Normurodov X.O., Zainiddinov N.S. (2024). O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbollari va yo'llari // Central Asian Journal of Academic Research. – T. 2, № 10–1. – B. 56–68.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>